

## MA'RIFATPARVAR JADIDCHILAR - MILLATIMIZ FAXRI!

***Alimova Mohidil Zafar qizi***

*Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti Pedagogika va psixologiya fakulteti  
"Amaliy psixologiya" yo'nalishi 3-kurs talabasi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada jadidchilik harakatining ma'rifatparvar bobolarimizning qilgan g'oyaviy siyosiy ishlari haqida yoritilgan bo'lib, maqolani o'qir ekansiz, millat, milliy istiqol, vatan tuyg'usi qanchalar muhim ekanligini anglab yetasiz.Jadidchilik harakati va uning fidoyilarini milliy istiqlol, taraqqiyot va farovonlikka erishishda ilm-ma'rifatning ahamiyatini ta'kidlab, bizga mustahkam meros qoldirdilar. Ularning g'oyalari va faoliyati bugungi kunda ham millatimiz faxri va iftixoridir.

**Kalit so'zlari:** Jadidchilik, sivilizatsiya, mafkura, jadidizm, milliy davlatchilik, taraqqiyat, taraqqiyat,

**Kirish.** Ma'rifatparvar jadidchilik harakati XIX asr oxiri va XX asr boshlarida O'rta Osiyo, shu jumladan, bizning millatimiz tarixida muhim o'rinn tutgan. Jadidlar xalqni qoloqlik va diniy xurofotdan ozod etish, shariat tamoyillarini isloq qilish, xalqqa ma'rifat tarqatish va milliy muxtoriyatga erishish g'oyasini ilgari surdilar.

Buyuk ma'rifatparvar bobolarimiz tomonidan ilgari surilgan g'oyaviy-siyosiy, ijtimoiy-ma'rifiy va huquqiy-axloqiy qarashlar hozirgi kunda ham uchun ibrat manbai hisoblanadi. Ularning faoliyati milliy birlik, ma'naviy-ma'rifiy islohotlar bilan jamiyatni yangilash va yuksaltirish yo'llarini izlashga qaratilgan edi.

Mahmudxo'ja Behbudiy (1875–1919) dramaturg, noshir, pedagog va jamoat arbobi sifatida tanilgan. U "Samarqand" gazetasi va "Oyna" jurnalini nashr etib, ta'lif va madaniyat sohasida muhim ishlarni amalga oshirdi. Jadidchilik harakati qoloqlik va jaholat, o'lka aholisining ayanchli ahvoli, Turkistonning Yevropa va jahon sivilizatsiyasidan orqada qolib ketishi, islam va shariatning oyoq osti qilinishi va bunday og'ir hayotdan qutilish, erk va ozodlikka erishish uchun o'z zamonasining ilg'or ziyoli qatlamlari qarashlarida vujudga keldi. Jaholat uyqusidan uyg'onish, tarixiy zaruriyatga aylangan edi. Boshqacha qilib aytganda, jadidchilik harakati ijtimoiy rivojlanishning, tarixiy taraqqiyotning talab va ehtiyojlariga javob sifatida maydonga kelgan ulkan ijtimoiy - siyosiy harakat edi.

Toshkent, Farg'ona, Buxoro, Samarqand va Xivada hur fikrli va taraqqiyotparvar kishilarning ayrim guruhlari tomonidan ochilgan madaniy-ma'rifiy yo'nalishdagi jamiyat va uyushmalardan jadidchilik harakati shakllandi.

Jadidchilik umummilliy harakat sifatida:

1. Jamiyatning barcha qatlamlarini jalb eta oldi. Uyg'onish mafkurasi bo'lib xizmat qildi.

2. Maorif va madaniyatni, matbuotni ijtimoiy-siyosiy maqsadlarga moslab chiqarish.

3. Mustaqillik uchun kurash olib bordi. Ularning g'ayrat va tashabbusi bilan dunyo yuzini ko'rgan "Turkiston muxtoriyati" bu yo'lдagi amaliy harakatlarning dastlabki natijasi edi.

Jadidlar voyaga yetgan yoshlar Turkiston kelajagi, ravnaqi uchun kurashchi bo'lib yetishishi kerakligini uqtiradilar va bundan ular har xil illatlardan xalos bo'lishini taminlaydi. Turkistondagi maorif tizimini isloq qilishni asosiy maqsad qilib olgan jadidlar yoshlarni milliy mustaqillik manfaatlarini himoya qila oladigan, iqtisodiy va siyosiy qaramlikdan chiqish muammolari bilan shug'ullanadilar, zamonaviy bilimga ega kadrlar bo'lishi kerakligini anglaganlar. Jadidlar xalqning madaniyat darajasini xalqaro saviyaga ko'tarishni orzu qilganlar, buning uchun esa yoshlarni Yevropaning eng yaxshi o'quv maskanlarida o'qitish zarur, deb hisoblaganlar.

XX asr boshlariga kelib Toshkent, Samarcand, Buxoro, Farg'ona vodiysi shaharlarida o'nlab jadid usulidagi maktablar ochildi. Jadidlar maktablarda yoshlarni bilimli va ma'rifatli qilib tarbiyalab, ular orqali Turkistonda mustaqil davlat barpo etish uchun milliy davlatchilik g'oyalarini ilgari surgan. XX asr boshiga kelib Turkistonda jadid ziyyolilarning butun bir avlodи, o'lka ma'naviy-marifiy soha taraqqiyotiga, milliy madaniyatning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan namoyandalari vujudga keldi.

Abdulla Avloniy (1878-1934) ham jadidchilik harakatining faol ishtirokchilaridan biri bo'lib tanilgan. U o'zining zamondosh jadidlari, izdoshlari kabi yangi usul maktablari ochib, ularga o'zi mudarrislik qildi va darsliklar yozdi. Uning "Birinchi Muallim", "Ikkinchi Muallim", "Turkiy guliston yoxud axloq", "Maktab gulistoni", singari darslik, "Adabiyod yoxud milliy she'rlar" to'plamlar, ayniqsa, yuqori sinf o'quvchilariga darslik sifatida yozilgan "Turkiy guliston yoxud axloq" asari (1913yil) mashxo'r bo'ldi.

Jadidchilik harakatining Buxorodagi yirik vakillaridan biri – Abdurauf Fitrat (1886-1938). U 1909 yilda Istanbulda nashr etilgan "Munozara" asrida Buxoro amrлиgi idorasiga ma'lum islohot – o'zgarish kiritish g'oyasi va "Usuli jadid" deb nomlangan yangi muorif tizimining asoslarini ilgari surgan. Fitrat butun vujudi, otash va jo'shqin yuragi bilan, ijodi va faoliyati bilan manlakat yoshlarini rivojlangan yangi dunyo tomon safarbar etadi.

Turkiston jadidchilik harakatining namoyandalari ma'rifatparvar kishilar edi. Ma'rifatparvarlar keng ma'noda bilim taraqatuvchi kishilar hisoblanadi. Siyosiy ma'noda ma'rifatparvarlik xalqni ozodlikka olib chiqishi va milliy davlatchilik g'oyalarini ilgari surish bilan ifodalanadi. Turkiston ma'rifatparvarlari jaholat,

bilimsizlik, madaniyatsizlik, mutaassiblik, diniy aqidaparastlikni inson azob-uqubatlarining asl sabablari deya talqin etdilar. Ular podsho yakkahukumronligiga qarshi kurashdilar, siyosiy erkinlik va inson huquqlarini yoqlab chiqdilar. Turli mamlakatlarda ma'rifatchilik harakatlari o'ziga xos, milliy xususiyatlarga ega bo'lgan, ammo ularning mushtarak jihatlari ham mavjud edi. Bu jihatlar Turkiston jadidlari faoliyatida ham namoyon bo'ldi.

### **Xulosa**

Ushbu maqolada mamlakatimiz xududida jadidchilik oqimining yuzaga kelishi va uning ma'rifatparvarlik soxasidagi faoliyati, jadidlar millatimiz faxri ekanligi haqida to'xtaldik. Jadidchilik harakatining ijtimoiy-siyosiy qarashlari, milliy mustaqillik va davlatchilik g'oyalari (Munavvarqori, Behbudiy, Polvonniyoz Yusupov, Fitratning dasturlari), bu boradagi amaliy harakatlari va kurashlari aloxida katta mavzudir. Jadidchilik Turkiston yoshlarining milliy, madaniy ijtimoiy uyg'onishida va ravnaqida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Zamonning dolzarb masalalarini, hayotining muommolarini ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy yo'l bilan yechish yo'llarini jadidlar o'z maqola va asarlarida ko'rsatganlar. Yoshlarni o'qishga, bilim olish va ishlab chiqarish jarayoniga jalb etish, madaniy-ma'naviy saviyasini yuksaltirishga chorlaydi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, jadid bobolarimiz moddiy qiyinchiliklar, g'oyaviy-siyosiy tazyiqlarga qaramay millatning ma'naviy yuksalishi uchun imkoniyatlar yaratishga harakat qildilar. Tarixning murakkab mas'uliyatli burilish davrida millatning ongini yuksaltirish, milliy iftixon tuyg'usini kuchaytirish birinchi darajali vazifalardan ekanligini anglab yetganliklari uchun ham bu boradagi barcha ishlarni o'z zimmalariga olganlar.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Qosimov B. "Milliy uyg'onish". Toshkent. "SHarq". 2004 yil. 53 bet.
2. Behbudiy B. "Behbudiy kutubxonasi", "Oyina" jurnali. 1914 yil 26 aprel Tanlangan asarlar. Jild-II.-T.: Akademnashr. 2018 yil 14 bet.
3. Avloniy A. "Tarjimai xol. Tanlangan asarlar. 2-jild. Toshkent. "Ma'naviyat". 1998 yil 288 bet.
4. Munavvarqori A. "Qizil O'zbekiston". 1927 yil 7-iyun. Ziyo uz. Com.
5. Sabirdinov A. O'zbek romanchiligi; kecha va bugun. Izlanishlar samarasi. O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 2005 yil 28 yanvar.
6. Behbudiy B. "Ikki emas , to'rt til lozim", "Oyna" jurnali. 1913 yil 10 avgust N1. Tanlangan asarlar. Jild-I.-T. Akademnashr. 2018 yil 396 bet.
7. Oblomurodov N. Hazratqullov A va boshqalar. "O'zbekiston tarixi" (o'quv qo'llanma) Toshkent. 2011yil.
8. Karimov I. A. " Biz kelajagimizni qo'limiz bilan quramiz" Toshkent. 1999 yil. B. 385